

## ABOUT NEW ASSISTANTS IN UZBEK LANGUAGE

Erbutayeva Shalola Utkirovna

Samarkand State University, Faculty of Uzbek Philology, Master of the II course of the department of Uzbek linguistics. E.mail: shalolaerbutaeva204@gmail.com. Tel: +998945373900; +998990561892.

Azamat Burhonovich Pardayev

Scientific adviser: Doctor of Philology Samarkand State University  
Dean of the Faculty of Uzbek Philology.

### Annotation:

The study of auxiliaries in this article, the emergence of auxiliaries in our language and their application in the speech of the heroes of works of art; The meanings of the auxiliary words (denotative and connotative) are explained by the meanings of the auxiliary words in OTIL. we tried.

**Keywords:** Auxiliaries, auxiliaries; auxiliary words such as side, base, face; grammatical meaning and grammatical function, lexical meaning, semantic shift. In covering the topic of the article, we used the method of analysis of the scope of meaning **KIRISH**. Tilimizda shunday so`zlar borki, ular o`zining leksik ma`nosidan tashqari ko`makchi vazifasida ham qo`llaniladi. Ko`makchilar tarixan mustaqil so`zlar bo`lgan bo`lsa-da, hozirgi o`zbek adabiy tilida leksik ma`nosini yo`qotgan. Grammatik ma`no va grammatik vazifaga ega. O`zbek tilida yordamchi so`zlar, shu jumladan ko`makchilar, shakliy-funksional tomondan ancha o`rganilgan. XX asrning 20-yillarida yaratilgan Abdurauf Fitratning "Sarf"; M.Qori, Q.Ramazon, Sh.Zunnunlar muallifligida nashr qilingan "O`zbekcha til saboqlig`i" asarlarida bog`lovchi atamasi keltirilmaydi. Bu turdagи so`zlar KO`MAKCHI deb yuritiladi. Ko`makchilarning til tizimidagi tutgan o`rni xususida A.Kononov, A.G`ulomov, S.Mutallibov, A.Hojiyev, U.Tursunov, H.Berdiyorov, T.Rustamov, H.Ne'matov, J.Hamdamov, A.Pardayevlarning ilmiy xulosalariga tayanib, aytish mumkinki, ko`makchilar tarixan mustaqil so`zlar hisoblanib, o`z leksik ma`nolariga ega bo`lgan, ammo davrlar o`tishi bilan bu leksik ma`nolarni yo`qotib, ularning ma'lum qismi o`zgarmas bo`lib, hech qanday grammatik shakllarni qabul qilmaydigan holga kelib qolgan, o`zidan oldin kelgan so`zlar bilan birgalikda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon, obyekt, o`xshatish, payt, masofa, yo`nalish singari grammatik ma`nolarni ifoda etadigan va yordamchi vosita sanaladigan til birliklaridir. Mazkur maqolada shu kabi so`zlarning ayrimlari haqida so`z yuritiladi.

Hozirgi kunda tilimizda yuzdan ortiq so`zlar borki, o`z ma`nosidan tashqari ko`makchi vazifasida ha qo`llaniladi. Masalan, **aralash**, **bag`riga**, **zamirida**, **chegarasida**, **qobig`iga**, **ro`parasiga**, **ro`parasida**, **yaxlit**, **qavmida**, **c hog`**, **chog`da**, **tubida**, **tubda**, **bag`rida**, **barida**, **belida**, **buyoq**, **vaziyatda**, **vaqt**, **vaqtda**, **girdida**, **dam**, **damda**, **yordamida**, **zaylida**, **zaminida**, **zamon**, **zamonda**, **zahoti**, **zahot**, **kasriga**, **kasridan**, **kezda**, **kezl**

arda,kelganda,komiga,ko`magida,labiga,labida,mavzuda,og`ushida,oralab,ortiq,payida ,payt,paytda,pallada,pallasi,ro`parasiga,ro`parasida,ro`parasidan,sirasiga,taqdirda,tan i,tayanib,tobda,topda,tubiga,tubida,tubidan,uchida,chog`,chog`da,yuqorida,yaqin,o`ngi da,o`tib,qavatiga,qirg`og`iga,qirg`og`ida,kuyida,quchog`ida,qo`ynida,qo`ltig`ida,holatd a,jo`niga,jo`nidan,niyatida,oqibatida,qo`liga,qo`lida,tevaragida,tegrasida,ichidan,galda, darajada,deparasida(atrofida),ziyoda,izmiga kabilar...Shu so`zlardan ayrimlari haqida so`z yuritamiz.

**Zamirida** - so`zi o`z leksik ma`nosidan tashqari ko`makchi vazifasida ham qo`llaniladi.Ko`makchilashayotgan bu so`z "O`zbek tilining izohli lug`ati"da "zamir" – 1)"aql, vijdon,yashirin fikr " ,2)"Tub mohiyat,asl ma`no,mazmunan,asos" degan ma`nolarni anglatadi.(O'TIL.II,145)G`azab bilan aytilgan bu taxdid **zamirida** chinakam zulm mavjudligini Kesakpolvon sezdi(T.Malik), Romandagi qator obrazlarning **zamirida** konkret tarixiy shaxslar yotadi(O'TA).**Zamirida** so`ziga sinonim tarzda **tagida\tagidan** oraliq bosqichdagi so`zlar ishlatiladi.Masalan:G`azab bilan aytilgan bu taxdid **tagida** chinakam zulm mavjudligini Kesakpolvon sezdi.

**Ro`para**-izohli lug`atda yuzma-yuz,bir narsaga yoki so`lovchiga tomon;qarshi ma`nolarni ifodalashi aytilgan.Chunki ...**ro`parasida** xotini yoqtirib qolgan o`sha odam turardi.(T.Malik) Bu gapimizda **ro`para** so`zi qarshisida so`ziga teng va denotativ ma`noni yuzaga chiqaryapti.Zaynab ajal **ro`parasida** turganini his qilardi(T.Malik)gapidagi ro`para so`zi semantic mavhumlikka siljigan,ya`ni ko`makchilashgan.**Taqdirda** so`zi ham o`z ma`nosi,ham ko`makchi ma`nosida qo`llanila olishi mumkin.M:Zohid shartta qishloqqa jo`navormoqchi bo`ldi,lekin Botirov **taqdiri** yodiga tushib ,fikridan qaytdi.(T.Malik).Yuqorida keltirilgan gapda taqdirda so`zi peshona,qismat ma`nosida kelgan.U kelgan **taqdirda** ham bu uyda ko`ngli osoyish topmasligini bilib,yana qo`ng`iroq tugmasini bosdi.(T.Malik)Bu gapda esa ko`makchi vazifasida kelyapti. **Zayl**-“izohli lug`at”da “dum,etak;oqibat;intiho”ma`nolari keltirilgan.Shu **zaylda** lutf almashilgandan so`ng har ikkala tomonni ajratib turuvchi noqulaylik pardasi chetga surildi(T.Malik). Zaylida so`zi bu o`rindaa “ma`lum tarzda;,ma`lum holatda”ma`nolarida ishlatilgan.Zamon zayli bilan bugungi yoshlarimiz ko`proq bilim egallahsga harakat qilishmoqda(suhbatdan).**Zamon taqozosi bilan** ma`nolariga to`g`ri kelgan va o`z ma`nosida ishlatsa bo`lsa,zamon\zamonda so`zlarini ham xuddi yuqoridagi misol kabi o`z ma`nosida ham,ko`makchi ma`nosida ham ishlatishimiz mumkin.

-Bo`tamni zamon yo`ldan chiqardi.

-Unday demang,inim o`sha zamon nima uchun siz bilan meni yo`ldan chiqarmadi?(T.Malik)Ko`rinib turibdiki zamon so`zi o`z ma`nosida “Ma`lum bir vaqtga”nisbatan ishlatilyapti.”Tur,bolam,hali zamon ishga borishing kerak” ,- dedi Oyxon momo mayin ovozda.Bu gapda ko`makchi vazifasida kelgan.**Payt\paytida** so`zi o`z ma`nosida ishlatilganda “vaqt”ga nisbatan,ko`makchima`nosida ishlatilganda esa o`zidan

oldingi so`zga qo`shimcha ma`no beradi.**Payti** kelganda bizga faol tarzda qo`shilasiz, hozircha kuzating tahlil qiling.

Zohid gangib turgan paytda ovoz takrorlanadi "Oy bo`lishni xohlaysanmi yoki quyosh".**Damda\dam** so`zlari "izohli lug`at"da I.Tin,nafas; II.Orom,ishdan bo`sh vaqt ; III.Biror narsaning ichiga to`lgan havo,gaz; IV.Shiddat,zo`rlik.V.Kibr-havo,hovur;VI.Bug`,hovur,par.O`zining damida pishgan palovxonto`rani paqqos tushirishgach,birin-ketin ko`chaga chiqishdi(G).Butun mamlakat bo`ylab ichkilikka qarshi kurash ketayotgan damda yukxonaga terilgan aroq,konyaklarni ko`z-ko`z qilish qahramonlik belgisi edi. Birinchi gapimizda o`z bug`ida ma`nosida ,ikkinchi gapimizda esa o`zidan oldingi so`zga qo`shimcha ma`no berish uchun xizmat qilgan.Bu kabi yuzlab misollarni uchratishimiz mumkin.E.A`zamning "Shovqin" romanidan olingan quyidagi misollarga diqqatimizni qaratamiz: Chamasi, oshning zirvagi allaqachon tayyor,qolganidan ham ko`ngil to`q,o`rnidan qimirlamay xaxolab qadah ko`targani ko`targan,kirib-chiqib xizmat qilib turgan shogirdi-o`zi singari baqaloq **qizginaning biqinidan chimchilab**,yo`l-yo`riq berib o`tiribdi. ( Шовқин 172 -бет)Qizginaning biqini birikmasida biqin-inson organi.Izohli lug`atimizda quyidagicha izohlangan Biqin-gavdaning qo`ltiqdani to tos suyagigacha bo`lgan ikki yon qismi.O`ng biqin.Chap biqin.Biqin go`shti.Tekin tomoq biqin tepar.Maqol. Yuqoridagi "biqin" so`zini, endigi keltirmoqchi bo`lgan gapimizda ishtirok etgan "biqin" so`zi bilan taqqoslasmiz.

**Farhodning biqinida o`tirgan** tengdoshroq yigitning pichirlab axborot berishicha, bu odamning ismi Badriddin ekan, asli toshkentlik xo`jalardan; shu yerda o`qib, uylanib, yashab qolgan, allaqaysi bir ilmiy tadqiqot institutida oddiy xodim bo`lib ishlar emish.( Шовқин 173 -бет) Har ikkala gapimiz tarkibidagi **biqinidan\da** so`zi mustaqil ma`noga ega fe`l so`z turkumiga bog`lanib kelgan: qizginaning biqinidan chimchilamoq: ot+biqin+fe`l(mustaqil ma`no) , Farhodning biqini ot+biqinida(ko`makchilashgan)+fe`l. Shu o`rinda T.Rustamov ko`makchilar faqat mustaqil ma`noli so`zlarga birikkandagina leksik ma`no ifodalaydi degan fikrni ilgari suradi. Biz keltirgan misolda esa har ikkala holda ham mustaqil so`zga birikkan so`z, ya`ni **biqin** ikki xil funksiya bajarayotganini ko`ryapmiz. Izohli lug`atimizda esa **BIQINIDA-(3-sh.egalik** va **o`.-p.k** qo`shimchalar bilan). Ko`m.vzf. Yaqinida, yonida. Ko`makchi vazifasida qo`llanilishi aytilgan.

Ko`makchilarning leksik ma`no anglatuvchi so`zlarga yaqinlashtiruvchi xususiyatlardan biri ma`no ko`chishida faol ishtirok etishidir. Bu xususda A.Pardayevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: ..til taraqqiyoti silsilasida ayrim mustaqil so`zlarning yordamchi so`zlarga o`tib turishi tarixiy jarayon bo`lib, so`zlarning nutqda ko`chma ma`noda qo`llanilishi ham ularning yordamchi so`zlarga aylanishiga sabab bo`ladi. Qizning biqinidan chimchilamoq-o`z (denotative) ma`noda qo`llangan bo`lsa, Farhodning biqinida o`tirmoq ko`chma ma`no kasb etyapti. Birinchi misolimizda qizning biqini(organi) hisoblansa, ikkinchi misolimizda Farhodning biqinida(yonida) o`tirmoq ma`nosini izohlab kelyapti. Biz yaxshi bilamizki, ma`no ko`chish hodisalari turli holatlarda uchraydi: harakatning

o`xhashligi, joylashgan o`rniga ko`ra, vazifasiga ko`ra..."Biqin" so`zi insonning ikkala qo`ltiq tagidan tos suyagigacha bo`lgan yon qismi(organi) ekanligini bilib oldik Biz keltirgan misolda esa joylashish o`rniga ko`ra ma`no ko`chish hodisasi sodir bo`lgan.. Demak, T.Rustamov va A.Pardayevlarning ilmiy fikrlariga asoslanib ma`no ko`chishi natijasida ham ko`makchilashish hodisasi sodir bo`lishiga guvoh bo`ldik. Birgina "Shovqin" romanining o`zida biqinida ko`makchisi ko`pgina o`rinlarda ishlatilgan. Bunda mustaqil turkum ma`nosida qo`llanmasdan ko`makchi ma`nosida qo`llanilgan. .

1. So`ngra majlisxona eshididan kirgani hamono qo`l silkib yoniga **chorlaganida uning biqinida** xo`mrayib **o`tirgan** Dianaga ko`zi tushdi-yu, sheri Sur`at bahona, Farhod yo`lini bu yon burdi – kelib chetroqqa o`rnasha qoldi.

2. Akademshaharchaga kelib ,**terakzor biqinida** qatorlashgan garajlar oldida mashinadan **tushadilar**.

3. Shu payt **gulzor biqinidan** kaltagina bo`lib bir odam yo`rtib **chiqdi**.

4. Eski **binoning biqinida** "Latviya" rusumli mikroavtobus ko`rindi, shaharga otlanib turganlar guvva shunga yopirildi.

5. Oshxo`rlik "O`zbekiston" **restoranining biqinidagi** pasqamroq xonada **bo`ldi**.

6. **Kabinetining biqinidagi xilvatxonasisiga** qamalib olib qariyb bir shishani bir o`zi bo`shtadi, keyin divanga cho`zilib, kap-katta odam, ko`zga ko`ringan san`at arbobi, xuddi arazlagan boladek uv tortib yig`ladi.

## Xulosa

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, ko`makchilashish hodisasi o`rganilishini kutib yetgan mavzulardan hisoblanadi. Bu mavzuga doir misollar badiiy kitoblar bilan bирgalikda mакtab darsliklarida ham juda ko`plab uchraydi. Ular bir matn tarkibida o`z leksik ma`nosini saqlagan va boshqa o`rinda esa yordamchi so`z funksiyasini bajarayotgan bo`lishi mumkin. Biz bu maqolamizda ko`makchi vazifasida kelgan so`zlarni "O`zbek tilining izohli lug`ati" asosida ma`nolarini izohlab, bosh ma`no va ko`chma ma`noda qo`llanilishi misollar asosida izohlangan. Bu kabi so`zlarni matn tarkibidan aniqlash esa bugungi kun o`quvchilarining vazifasiga aylanishi kerak. Ko`makchi so`zlarni chegaralab faqat qoida bilan bog`lab qo`yishimiz mumkin emas.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Рустамов Т. Соф кўмакчилар.- Тошкент: Фан, 1991. – 124 б.
2. ПАРДАЕВ АЗАМАТ БАХРОНОВИЧ ЎЗБЕК ТИЛИ ЁРДАМЧИ СЎЗ ТУРКУМЛАРИНИНГ ЛИСОНИЙ ТИЗИМДАГИ ЎРНИ ВА ЛИНГВОПРАГМАТИКАСИ 10.00.01 – Ўзбек тили ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ (DSc) ДИССЕРТАЦИЯСИ АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент – 2017 йил;
3. А.Б.Пардаев ,ЁРДАМЧИ СЎЗЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАБИАТИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР «Қарақалпақ мәмлекетлик университетиниң хабаршыси» журналида (Нукус, 2011. –№ 1-2(10-11). –Б. 93-96.)
4. O`zbek tilining izohli lug`ati,-Toshkent:O`zbekiston Milliy Ensklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti.
5. Эркин АЪЗАМ, Шовқин. Роман. Қисса.Ҳикоялар ТОШКЕНТ – “O’ZBEKISTON” – 2011,-Б-188